



O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLINI IJTIMOY HIMOYALASHNING HOLATI HAMDA MOLIYAVIY MEXANIZMI

THE STATE OF POVERTY REDUCTION AND SOCIAL PROTECTION OF THE POPULATION IN UZBEKISTAN AND ITS FINANCIAL MECHANISM

¹**Xamdamov Shavkat
Komilovich**

¹TDIU, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrası professori, PhD.
ORCID: 0009-0009-0409-9670, G-mail: shavkatkhamdamov17@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalashning amaldagi holati, rivojlanish tendensiyalari hamda ushbu sohani moliyalashtirish mexanizmining samaradorligi kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi ijtimoiy himoyani moliyalashtirish tizimida mavjud institutsional va moliyaviy muammolarni aniqlash hamda uni integratsiya, manzillilik, proaktivlik, tabaqalashtirish va natijadorlik tamoyillari asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda deskriptiv-statistik, qiyosiy, dinamik, tarkibiy va tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan. Kambag'allik darajasi, minimal iste'mol xarajatlari, aholi daromadlari, ish haqi, daromadlar tengsizligi va davlat budjetining ijtimoiy xarajatlari dinamikasi baholangan. Tahlil natijalari O'zbekistonda kambag'allik darajasi sezilarli qisqarganini va ijtimoiy himoyani moliyalashtirish hajmi oshganini ko'rsatgan. Shu bilan birga, mavjud ma'lumotlarning turli reyestrlarda tarqoqligi, yordamning asosan murojaatga asoslanganligi, hududiy tafovutlar, transfertlarga bog'liqlik va ijtimoiy yordamning bandlik bilan yetarli darajada bog'lanmaganligi moliyaviy mexanizm samaradorligini cheklovchi omillar sifatida aniqlangan. Maqolada ijtimoiy himoya ma'lumotlarini yagona "Ijtimoiy reyestr" doirasida integratsiyalash, oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy holati va xavf darajasi bo'yicha toifalash, moliyaviy yordamni differensial taqsimlash, sug'urta nafaqalarini proaktiv hisoblash, bandlikni rag'batlantirish va kompensatsiya to'lovlarini haqiqiy ehtiyojga muvofiqlashtirish taklif etilgan. Xulosa sifatida, ijtimoiy himoya vositalarining yagona moliyaviy boshqaruv zanjirida ishlashi budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini, yordamning manzilliligini va aholining barqaror daromad manbalariga ega bo'lish imkoniyatlarini oshirishi asoslangan.

Eng. - This article provides a comprehensive analysis of the current state and development trends of poverty reduction and social protection in Uzbekistan, with particular emphasis on the effectiveness of the corresponding financing mechanism. The study aims to identify the institutional and financial constraints within the existing social protection system and to develop evidence-based proposals for its improvement based on the principles of integration, targeting, proactivity, differentiation, and results-oriented management. The research employs descriptive statistical, comparative, dynamic, structural, and systems analysis methods. It examines trends in the poverty rate, minimum consumption expenditure, household income, average

wages, income inequality, and social expenditure of the state budget. The findings indicate that Uzbekistan has achieved a substantial reduction in poverty and an expansion of financial resources allocated to social protection. However, the effectiveness of the current mechanism remains constrained by fragmented information across different registries, the predominantly application-based nature of assistance, regional disparities, increasing dependence on budget transfers, and the insufficient linkage between social assistance and employment policies. The article proposes integrating social protection data into a unified Social Registry, classifying households according to their socioeconomic status and level of social risk, introducing differentiated allocation of financial assistance, improving proactive calculation of social insurance benefits, strengthening employment incentives, and aligning compensation payments with households' actual needs. The study concludes that integrating social assistance, social insurance, employment support, and targeted compensation mechanisms into a unified financial management framework can improve the targeting and effectiveness of public expenditure and strengthen households' capacity to achieve sustainable sources of income.

Kalit so'zlar:

Keywords:

❖ *kambag'allik, kambag'allik chegarasi, aholini ijtimoiy himoyalash, moliyaviy mexanizm, davlat budjeti, nafaqa, moddiy yordam, kompensatsiya, ijtimoiy reyestr, manzilli moliyalashtirish.*

❖ *poverty, poverty line, social protection, financial mechanism, state budget, benefits, material assistance, compensation, social register, targeted financing.*

Kirish.

Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalash zamonaviy davlat iqtisodiy siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kambag'allikning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati uning faqat insonparvarlik o'lchovi bilan cheklanmasligida. Daromad yetishmovchiligi inson kapitalining shakllanishini cheklaydi, ichki iste'mol talabini pasaytiradi va ijtimoiy xavf-xatarlarni kuchaytiradi. Shu sababli kambag'allikni qisqartirish bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy adolatni ta'minlash, ham barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash vazifasini bajaradi. Aynan shu ikki yoqlama xususiyat masalani sof ijtimoiy yordam doirasidan chiqarib, makroiqtisodiy va moliyaviy siyosat darajasidagi muammoga aylantiradi.

Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi o'z maqsadlariga barqaror moliyaviy mexanizmsiz erisha olmaydi. Ijtimoiy himoyaning samaradorligi e'lon qilingan maqsadlar bilan emas, balki moliyaviy resurslarning qanday

safarbar etilishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanilishi bilan belgilanadi. Fiskal imkoniyatlari cheklangan rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda bu masala alohida o'tkirlik kasb etadi, chunki bu yerda resurslar hajmini cheksiz oshirish imkoniyati mavjud emas.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ijtimoiy himoya siyosati sezilarli kuchaydi. Kambag'allik darajasi 2011-yildagi 16,0 foizdan 2025-yilga kelib 5,8 foizgacha pasaygan, kambag'al aholi soni esa 4,66 mln kishidan 2,218 mln kishigacha qisqargan [21]. Institutsional jihatdan Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ning joriy etilishi va ehtiyojmand oilalarga manzilli kompensatsiya to'lovlarining yo'lga qo'yilishi bu siyosatning amaliy mazmunini boyitdi. Shuni qayd etish lozimki, 2021-yilda kambag'allik ko'rsatkichining nisbatan yuqori bo'lishi faqat iqtisodiy omillar bilan emas, balki milliy kambag'allik chegarasining joriy etilishi va

baholash metodikasining o'zgarishi bilan ham bog'liq.

Erishilgan natijalarga qaramay, amaldagi moliyaviy mexanizm chuqur muammolarni saqlab qolmoqda: ijtimoiy himoya ma'lumotlarining ikki reyestr o'rtasida tarqoqligi, yordamning passiv va murojaatga asoslangan xarakteri, hududiy tafovutlar hamda ijtimoiy yordam, ijtimoiy sug'urta va bandlik siyosatining yagona moliyaviy mantiq asosida muvofiqlashtirilmaganligi. Mazkur holatdan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi ushbu sohani moliyalashtirish mexanizmini integratsiya, manzillilik va natijadorlik tamoyillari asosida takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalash masalalari xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarda turli metodologik yondashuvlar asosida o'rganilgan. Xorijiy iqtisodchilardan A.Sen kambag'allikni shaxsning asosiy imkoniyatlardan mahrumligi sifatida talqin qildi [3].

Nazariy yondashuvlar evolyutsiyasi moliyaviy mexanizm tushunchasining bosqichma-bosqich boyiganini ko'rsatadi. Klassik maktab (A.Smith, D.Ricardo, T.Malthus) resurslardan samarali foydalanishni asoslagan, ammo moliyalashtirish manbalari koordinatsiyasini yoritmagan [4; 5; 6]. J.M.Keynes ijtimoiy transfertlarning makroiqtisodiy multiplikator ta'sirini ko'rsatdi, biroq manzillilik masalasini aniq qo'ymadi [7]. Inson kapitali yondashuvi (A.Sen, T.Shults, G.Bekker) ta'lim va sog'liqni saqlashga investitsiyalarni markaziy omil sifatida belgiladi, lekin moliyaviy koordinatsiya modelini taqdim etmadi [3; 8; 9]. Zamonaviy eksperimental tadqiqotlar (A.Banerjee, E.Duflo) dalillarga asoslangan manzillilik tamoyilini empirik isbotladi, ammo tizimli moliyaviy koordinatsiya modelini shakllantirmadi [10]. Mahalliy olimlar

O'zbekiston sharoitida ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilishgan: kambag'allikni aniqlash va qisqartirish davlat siyosati [11], aholini ijtimoiy himoyalashda xorij tajribasi [12], muhtoj aholini moliyaviy qo'llab-quvvatlash [13] fiskal siyosat va instrumentlar orqali kambag'allikni qisqartirish [14; 17; 21], bandlik va farovonlik metodologiyasi [15], ijtimoiy nafaqalarning moliyaviy mexanizmlari [16] hamda muhtoj qatlamlarni aniqlashning nazariy asoslari [18] shular jumlasidandir.

Mavjud tadqiqotlarning umumiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimining alohida elementlari yetarlicha o'rganilgan, biroq ijtimoiy yordam va ijtimoiy sug'urta institutlarini yagona integratsiyalashtirish moliyaviy mexanizm doirasida muvofiqlashtirib boshqarish hamda bu mexanizmning manzillilik va proaktivlik tamoyillari asosidagi samaradorligini kompleks baholash masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan. Aynan shu ilmiy bo'shliq mazkur maqolaning predmetini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.


Tadqiqotning obyekti - O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalash tizimi hamda uni moliyalashtirish jarayoni, predmeti esa shu jarayonda yuzaga keladigan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlardir. Tadqiqotda bir-birini to'ldiruvchi besh xil tahlil usuli qo'llanildi. Deskriptiv-statistik tahlil kambag'allik darajasi, aholi daromadlari, ish haqi, Jini koeffitsienti va budget xarajatlari kabi ko'rsatkichlarning haqiqiy qiymatlarini umumlashtirishga xizmat qildi. Qiyosiy tahlil orqali kambag'allik darajasi hududlar kesimida hamda ijtimoiy himoyani moliyalashtirishning amaldagi va taklif etilayotgan modellari o'zaro qiyoslandi. Dinamik tahlil 2011-2025-yillardagi tendensiyalarni aniqlashda ishlatilib, 2021-yildagi metodologik o'zgarish alohida hisobga olindi. Tarkibiy tahlil ijtimoiy xarajatlarning ichki tuzilishini va daromadlardan transfertlar ulushini baholadi.

Moliyaviy mexanizm elementlarini tizimli baholash usuli esa ehtiyojmandlarni aniqlash, manzillilik, moliyalashtirish mantig'i, bandlik bilan bog'liqlik va natijadorlik monitoringini yagona tizim sifatida o'rganishga imkon berdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda kambag'allik milliy kambag'allik chegarasi, ya'ni minimal iste'mol xarajatlari asosida aniqlanadi. Vazirlar


Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 544-son qarori bilan tasdiqlangan tartibga ko'ra [1], uy xo'jaligining jon boshiga iste'mol xarajatlari ushbu chegaradan past bo'lsa, oila kambag'al toifasiga kiritiladi. Kambag'allik chegarasi sifatida qo'llaniladigan minimal iste'mol xarajatlari qiymati 2021-yildagi 440 ming so'mdan 2025-yilda 669 ming so'mga yetgan (1-rasm).



1-rasm. Kambag'allik chegarasi (minimal iste'mol xarajatlari) dinamikasi, 2021-2025-yillar [22]

Bu dinamika aholining zarur iste'mol ehtiyojlarini qoplash xarajatlari ortib borayotganini ko'rsatadi va ijtimoiy yordamni

manzilli yo'naltirishda muntazam hisobga olinishi lozim.




2-rasm. O'zbekistonda kambag'allik darajasi dinamikasi, 2020-2025-yillar [22]

Kambag'allik darajasi so'nggi yillarda barqaror pasayish tendensiyasiga ega bo'ldi:

2021-yildagi eng yuqori 17,0 foizdan 2025-yilda 5,8 foizgacha kamaygan (2-rasm). 2021-yildagi

yuqori ko'rsatkichni faqat iqtisodiy omil sifatida talqin qilish to'g'ri emas, chunki aynan shu yili milliy kambag'allik chegarasi joriy

etilib, baholash metodikasi o'zgargan. Yillik dinamika to'liq holda 2-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Hududlar kesimida kambag'allik darajasi, 2025-yil [22]

Kambag'allikning hududiy taqsimoti umumiy pasayish barcha hududlarda bir xil kechmaganini ko'rsatadi. 2025-yilda eng past ko'rsatkich Toshkent shahrida (3,5 foiz), eng yuqori esa Xorazm viloyatida (6,7 foiz) qayd etilgan; respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 5,8 foizni tashkil etgan (3-rasm). Barcha hududlar bo'yicha taqsimot 3-rasmda aks ettirilgan. Bu tafovutlar moliyaviy resurslarni hududiy ehtiyojga qarab taqsimlash zaruratini ko'rsatadi.

Kambag'allikning pasayishi makroiqtisodiy barqarorlik bilan chambarchas bog'liq. 1-jadval ma'lumotlari yalpi ichki mahsulot izchil o'sib borayotganini, ishsizlik va inflyatsiya darajasi esa pasayayotganini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichlar ijtimoiy himoyani moliyalashtirish uchun makroiqtisodiy asos yaratadi, biroq ularning kambag'allikka ta'siri moliyaviy resurslarni manzilli yo'naltirishga bog'liq.

1-jadval

O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2020-2025-yillar)[22]

Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024	2025
YaIM, trln so'm	705,1	861,2	1 041,9	1 261,8	1 535,4	1 849,7
YaIM o'sish sur'ati, %	1,6	8,2	6,1	6,3	6,7	7,7
Jon boshiga YaIM, AQSh dollari	2 060	2 466	2 527	2 818	3 093	3 404
Inflyatsiya darajasi, %	11,1	10,0	12,3	8,8	9,8	7,3
Ishsizlik darajasi, %	10,5	9,6	8,9	6,8	5,5	4,8

Aholi daromadlari ko'rsatkichlari ham ijobiy tendensiyaning aks ettiradi: jon boshiga daromadlar va o'rtacha oylik ish haqi sezilarli oshgan, daromadlar tengsizligi esa mo'tadil saqlangan (2-jadval). Shu bilan birga, aholi

daromadlari tarkibida ijtimoiy transfertlar ulushi 23,1 foizdan 29,6 foizga o'sgan, bu esa aholining bir qismida davlat to'lovlariga bog'liqlik kuchaygan bo'lishi mumkinligiga ishora qiladi.

2-jadval

**O'zbekistonda aholi daromadlari va daromadlar tengsizligi
ko'rsatkichlari dinamikasi (2020–2025-yillar) [22]**

Yil	Aholi jon boshiga daromadlar, ming so'm	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm	Jini koeffitsienti	Daromadlar differentsiatsiya koeff.
2020	12 888,6	2 227,1	0,276	6,9
2021	15 773,9	2 662,0	0,273	6,8
2022	18 722,4	3 204,3	0,283	7,0
2023	21 396,2	3 799,6	0,288	7,1
2024	25 671,6	4 404,2	0,286	7,1
2025	29 935,5	5 796,1	0,279	7,1

Davlat budjeti xarajatlari tahlili ijtimoiy yo'naltirilgan xarajatlarning barqaror o'sib borayotganini ko'rsatadi (3-jadval, 4-rasm). Biroq xarajalar tarkibida ikki xil yo'nalish kuzatiladi: jami ijtimoiy soha xarajatlari kengaygani holda, bevosita nafaqalar, moddiy yordam va kommunal kompensatsiyalar ulushi qisqargan. Bu umumiy subsidiyalardan bosqichma-bosqich manzilli qo'llab-quvvatlashga o'tish jarayoni boshlanganini ko'rsatadi.

Shu o'rinda muhim tahliliy kuzatuv shuki, ijtimoiy soha xarajatlari va kambag'allik darajasi o'rtasida umumiy teskari bog'liqlik mavjud bo'lsa-da, xarajatlarning ayrim yillardagi o'sishi kambag'allikning bir xil sur'atda qisqarishini ta'minlamagan. Bu bog'liqlikning chiziqli emasligi xarajat hajmidan ko'ra uning manzilliligi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

3-jadval

**Davlat budjeti xarajatlarida ijtimoiy himoya
yo'nalishlarining o'rni (2021–2025-yillar, trln so'm) [23]**

Yil	Jami budjet xarajatlari	Ijtimoiy soha xarajatlari	Nafaqa va moddiy yordam	Kompensatsiya to'lovlari	Ijtimoiy soha ulushi, %
2021	188,3	92,0	18,6	20,9	48,9
2022	236,7	117,7	19,4	15,3	49,7
2023	281,1	163,3	19,2	15,6	58,1
2024	310,9	174,4	15,3	13,4	56,1
2025	388,9	205,8	16,8	13,3	52,9


Nafaqa, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlarining moliyaviy ahamiyati ularning qamrovi va manzilliligida namoyon bo'ladi. Nafaqa oluvchilar soni 2020-yildagi 918 ming kishidan 2023-yilda 2 199 ming kishigacha o'sgan, nafaqalar uchun ajratilgan mablag'lar esa 3,2 trln so'mdan 12,3 trln so'mga yetib, 2024-yilda 10,3 trln so'mni tashkil etgan. Manzilli yordamning aniq misollari ham mavjud: 1 mln 161 mingdan ortiq

ehtiyojmand oilaga 1,2 trln so'm bir martalik moddiy yordam to'langan, Prezidentning 2025-yil 2-apreldagi PQ-134-son qaroriga muvofiq [2] kommunal kompensatsiya doirasida esa 73,7 mlrd so'm to'lov amalga oshirilgan.

Olib borilgan tahlil amaldagi moliyaviy mexanizmning ham kuchli, ham zaif jihatlari borligini ko'rsatadi. Kuchli jihatlar qatoriga ijtimoiy himoya qamrovining kengayishi,

tizimning institutsional markazlashuvi va raqamlashtirishning kuchayishi kiradi. Zaif jihatlar esa ma'lumotlarning ikki reyestr o'rtasida tarqoqligi, mexanizmning passiv-kompensatsion xarakteri, pensiya jamg'armasiga budjet transfertlarining 9,1 trln so'mdan 20,2 trln so'mga o'sgani (transfertga

bog'liqlik) hamda ijtimoiy yordamning bandlik bilan yetarli bog'lanmaganligida ko'rinadi. Demak, budjet xarajatlarining o'sishi o'z-o'zidan samaradorlikni kafolatlamaydi; markaziy masala mablag'larning hajmida emas, ularning qaysi oilaga va qanday natija bilan yo'naltirilishidadir.



4-rasm. Davlat budjeti va ijtimoiy soha xarajatlari dinamikasi, 2020–2025-yillar [23]

Tahlil natijalari mavjud ilmiy adabiyotda aniqlangan bo'shliq bilan bevosita bog'lanadi. Xarajatlar hajmining o'sishi natijadorlikni avtomatik ta'minlamasligi, ya'ni manzillilikning markaziy ahamiyati zamonaviy eksperimental yondashuvlar (Banerjee, Duflo, Kremer) xulosalari bilan mos keladi. Daromadlar tarkibida transfertlar ulushining oshishi va bevosita nafaqalar ulushining qisqarishi tizimda tarkibiy siljish kechayotganini, ammo bu siljish hali yagona moliyaviy mantiqqa asoslanmaganini ko'rsatadi.

Olingan natijalarni xalqaro kontekstda baholash ham muhim. Xalqaro mehnat tashkiloti hisobotida [19] ijtimoiy himoyaning universal qamrovi va uni barqaror moliyalashtirish markaziy masala sifatida ko'rsatiladi, Jahon banki hisoboti [20] esa manzillilik va moliyalashtirish bo'shlig'ini global muammo deb belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda kambag'allik

darajasining 5,8 foizga tushishi sezilarli yutuq bo'lsa-da, erishilgan qamrovni saqlab qolish va yordamning manzilliligini oshirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Mahalliy tadqiqotlar [13; 14; 21] ijtimoiy himoyani moliyalashtirishning alohida mexanizmlarini o'rgangan bo'lsa, mazkur maqola ularning natijalarini yagona reyestrda asoslangan integratsiyalashgan model doirasida umumlashtiradi.

Shu nuqtai nazardan, moliyaviy mexanizmni takomillashtirishning markaziy yo'nalishi "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" va "Kambag'al oilalar reyestri"ni yagona "Ijtimoiy reyestr"ga integratsiyalashdan iborat. Bu reyestr asosida oilalarni "davlat ta'minotidagi oila", "kambag'al oila" va "kambag'allik chegarasidagi oila" toifalariga ajratish hamda har bir toifaga alohida moliyaviy ta'sir mexanizmini qo'llash mumkin. Amaldagi va taklif etilayotgan modellarning qiyosiy tahlili 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval
Ijtimoiy himoyani moliyalashtirish mexanizmining amaldagi va taklif etilayotgan modeli*

Moliyaviy mexanizm elementi	Amaldagi holat	Mavjud muammo	Taklif etilayotgan yondashuv	Kutilayotgan natija
Ehtiyojmandlarni aniqlash	Ikki reyestr alohida yuritiladi.	Tarqoqlik va takrorlanish.	Yagona "Ijtimoiy reyestr"ga integratsiya.	To'liqroq qamrov.
Yordamni yo'naltirish	Asosan murojaatga asoslanadi.	Manzillilikning pastligi.	Oilalarni toifalash.	Manzilli taqsimot.
Moliyalashtirish mantig'i	Passiv-kompensatsion.	Natijadorlik o'lchanmaydi.	Differensial moliyalashtirish.	Fiskal samaradorlik.
Kompensatsiya mexanizmi	Bazaviy me'yor asosida	Differensiatsiya cheklangan.	Toifa va iste'molga ko'ra farqlash.	Adolatli sarflash.
Bandlik bilan bog'liqlik	Bandlikdan ajralgan.	Nafaqaga qaramlik.	Yordamni bandlikka ulash.	Barqaror daromad manbai.
Monitoring va natijadorlik	Mablag' hajmi bilan baholanadi.	Ta'sir o'lchanmaydi.	Raqamli monitoring va indikatorlar.	Natijaga yo'naltirilgan boshqaruv.

*Muallif tomonidan shakllantirilgan.

Mazkur yondashuv ijtimoiy yordamni passiv to'lovdan natijaga yo'naltirilgan moliyaviy instrumentga aylantiradi. Ijtimoiy yordamni bandlik va kasbiy tayyorgarlik bilan bog'lash, xususi sektor xodimlari uchun nafaqalarni avtomatik hisoblash, kommunal kompensatsiyalarni differensiallash hamda raqamli monitoringni joriy etish bu modelning amaliy mazmunini tashkil etadi. Bunda fiskal samaradorlik yakuniy natija emas, balki resurslarni qayta taqsimlashga olib keladigan boshqaruv signali sifatida ishlashi lozim.

Taklif etilayotgan differensial modelning ta'sirini ssenariy tahlili orqali shartli misolda

ko'rsatish mumkin. Faraz qilaylik, ijtimoiy yordam jamg'armasi 100 shartli birlikdan iborat bo'lib, u 1000 ta ehtiyojmand oila o'rtasida taqsimlanadi. Amaldagi modelda mablag' barcha oilalarga teng beriladi, taklif etilayotgan modelda esa oila toifasiga biriktirilgan differensial koeffitsient asosida taqsimlanadi. Oilalarning toifalar bo'yicha ulushi va koeffitsientlar bu yerda shartli (illyustrativ) qabul qilingan; aniq qiymatlar "Ijtimoiy reyestr" ma'lumotlari asosida kalibrlanishi lozim. Hisob-kitob natijalari 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval
Ijtimoiy yordamni taqsimlashning shartli (illyustrativ) ssenariysi

Oila toifasi	Oilalar ulushi*, %	Differensial koeffitsient*	Amaldagi model: bir oilaga ulush**	Taklif model: bir oilaga ulush**	O'zgarish, %
Davlat ta'minotidagi oila	20	1,5	0,100	0,153	+53
Kambag'al oila	50	1,0	0,100	0,102	+2
Kambag'allik chegarasidagi oila	30	0,6	0,100	0,061	-39

Izoh: *Oilalar ulushi va koeffitsientlar shartli qabul qilingan. ** Jami fond — 100 shartli birlik, 1000 oila; bir oilaga to'g'ri keladigan ulush shartli birlikda berilgan.

Ssenariydan ko'rinadiki, differensial model fondning umumiy hajmini oshirmasdan, mablag'larni eng yuqori ehtiyojdagi "davlat ta'minotidagi oila" toifasiga qayta yo'naltiradi: bunday oilaga to'g'ri keladigan ulush 0,100 dan 0,153 shartli birlikka oshadi, nisbatan past

ehtiyojdagi toifada esa kamayadi. Bu manzillilik tamoyilining miqdoriy ifodasi bo'lib, ijtimoiy yordamning fiskal samaradorligini oshirish imkoniyatini ko'rsatadi; mazkur natija faraz sifatida qabul qilinib, real reyestr ma'lumotlari asosida empirik kalibrlashni talab etadi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari ijtimoiy himoyani moliyalashtirish samaradorligi ajratilayotgan mablag'lar hajmidan tashqari, oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholash sifati, kambag'allik xavfini barvaqt aniqlash, moliyaviy yordamni ehtiyoj darajasiga muvofiq yo'naltirish hamda erishilgan natijalarni muntazam kuzatib borish bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. Shu bois ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini manzillilik, proaktivlik, tabaqalashtirish va natijadorlik tamoyillari asosida izchil rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, "Ijtimoiy reyestr"ning funksional imkoniyatlarini yanada kengaytirish ijtimoiy yordamlarni tayinlashda foydalaniladigan ma'lumotlarning yaxlitligi va tezkorligini oshirishga xizmat qiladi. Turli axborot tizimlaridagi ma'lumotlarni o'zaro uyg'unlashtirish takroriy yozuvlarni kamaytirish, oilalarning real ehtiyojini aniqroq baholash va budjet mablag'larini ustuvor yo'nalishlarga manzilli taqsimlash imkonini beradi. Bunda reyestr ijtimoiy to'lovlarni hisobga olish vositasi bilan cheklanmay, ijtimoiy xavflarni baholash va moliyaviy qarorlar qabul qilishning asosiy axborot platformasi sifatida faoliyat yuritishi zarur.

Ikkinchidan, oilalarni "davlat ta'minotidagi oila", "kambag'al oila" va "kambag'allik chegarasidagi oila" toifalari bo'yicha baholash mezonlarini moliyaviy jihatdan yanada aniqlashtirish lozim. Har bir toifa uchun yordam shakli, miqdori, davomiyligi hamda qo'llab-quvvatlash shartlarining alohida belgilanishi oilaning daromad holati, mehnat salohiyati va ijtimoiy xavf darajasiga mos moliyalashtirishni ta'minlaydi. Bu esa mavjud resurslarni ehtiyoj darajasi yuqori bo'lgan oilalarga ustuvor yo'naltirish imkonini kengaytiradi.

Uchinchidan, homiladorlik va tug'ish hamda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalarini sug'urta staji va to'langan badallar

miqdoriga mutanosib hisoblash amaliyotini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq. Ma'lumotlar almashinuvini avtomatlashtirish va nafaqalarni proaktiv tarzda hisoblash qamrovning to'liqligini oshiradi, fuqarolarning ortiqcha murojaatlarini kamaytiradi hamda xususiy sektorda band bo'lgan shaxslarning ijtimoiy kafolatlarini mustahkamlaydi. Sug'urta badallari bilan olinadigan ta'minot o'rtasidagi bog'liqlikning kuchayishi rasmiy bandlik va sug'urta intizomini rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

To'rtinchidan, kambag'al oilalar tarkibidagi rasmiy band yolg'iz ota-onalarning maktabgacha yoshdagi farzandlari uchun ta'lim xizmatlari xarajatlarini kompensatsiya qilish mexanizmining manzilliligi va natijadorligini oshirish zarur. Moliyaviy ko'makni ota-onaning bandlik holati, oilaning daromad darajasi va bolaning maktabgacha ta'lim xizmatlaridan amalda foydalanishi bilan bog'lash yordamning ijtimoiy investitsion xususiyatini kuchaytiradi. Natijada bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovi kengayadi, ota-onalarning mehnat faoliyatini davom ettirish imkoniyati mustahkamlanadi va oilaning kambag'allik xavfi kamayadi.

Beshinchidan, nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat bozoridagi ishtirokini kengaytirishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi moliyaviy hamkorlik vositalarini yanada rivojlantirish lozim. Ish o'rinlarini moslashtirish xarajatlarini qoplash, ish beruvchilarga tabaqalashtirilgan subsidiyalar ajratish va rag'batlantirish miqdorini erishilgan bandlik natijalari bilan bog'lash ushbu yo'nalishdagi moliyaviy mexanizmlarning ta'sirchanligini oshiradi. Bunday yondashuv nogironligi bo'lgan shaxslarni doimiy moddiy qo'llab-quvvatlash bilan cheklanmay, ularning barqaror bandligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Oltinchidan, ehtiyojmand oilalarning elektr energiyasi va tabiiy gaz xarajatlarini kompensatsiya qilishda oilaning daromadi, tarkibi, yashash hududi, mavsumiy ehtiyoji va

iste'mol hajmini hisobga oluvchi tabaqalashtirilgan mezonlardan foydalanishni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq. Kompensatsiya miqdorini oilaning haqiqiy moliyaviy yukiga muvofiq belgilash energiya tariflari o'zgarishining kam daromadli oilalarga ta'sirini yumshatadi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv budjet xarajatlarini umumiy subsidiyalashdan aniq ehtiyojni moliyalashtirishga yo'naltirish imkonini beradi.

Umuman olganda, qayd etilgan yo'nalishlarning o'zaro uyg'unligi ijtimoiy

himoyani moliyalashtirish tizimining manzilliligi va natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Reyestr ma'lumotlari, tabaqalashtirilgan yordam mezonlari, proaktiv sug'urta to'lovlari, bandlikni qo'llab-quvvatlash va maqsadli kompensatsiya mexanizmlarining yagona moliyaviy boshqaruv zanjirida ishlashi budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini kuchaytiradi. Natijada ijtimoiy yordamning oilalar daromadi, bandligi va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlariga real ta'sirini oshirish uchun mustahkam institutsional asos yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 544-son qarori bilan tasdiqlangan "Aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymati va kambag'allik chegarasini hisoblash tartibi to'g'risidagi nizom".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.04.2025-yildagi "Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishda ehtiyojmand aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-134-son Qarori
3. Sen, A. (1999). *Development as freedom*. Oxford University Press.
4. Smith, A. (1776). *An inquiry into the nature and causes of the wealth of nations*. W. Strahan & T. Cadell.
5. Ricardo, D. (1817). *On the principles of political economy and taxation*. John Murray.
6. Malthus, T. R. (1798). *An essay on the principle of population*. J. Johnson.
7. Keynes, J. M. (1936). *The general theory of employment, interest and money*. Macmillan.
8. Schultz, T. W. (1961). *Investment in human capital*. *The American Economic Review*, 51(1), 1-17.
9. Becker, G. S. (1964). *Human capital: A theoretical and empirical analysis*. Columbia University Press.
10. Banerjee, A. V., & Duflo, E. (2011). *Poor economics: A radical rethinking of the way to fight global poverty*. PublicAffairs.
11. Mustafaqulov Sh.I., Murodullaev N., Xamidov R., Raximberdiev O. O'zbekistonda kambag'allikni aniqlash va qisqartirish davlat siyosati darajasida // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2020. – №1.
12. G'aniev M.X., Sohodillaev Q.I. Aholini ijtimoiy himoya qilish va kambag'allikni kamaytirishda xorij tajribasi: monografiya. – Namangan, 2022. – 129 b.
13. Sholdarov D.A. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlashning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirishning konseptual asoslari: i.f.d. (DSc) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2024.
14. Vosiqov U.A. Aholi daromadlari tabaqalanishi va kambag'allikni qisqartirishda fiskal siyosatdan foydalanish: i.f.d. (DSc) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2025.
15. Xayitov Sh.N. Kambag'allikni qisqartirish asosida aholi bandligi va farovonlik darajasini oshirish metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. (DSc) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2025.
16. Aliyev M.K. O'zbekistonda ijtimoiy nafaqalarning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish: PhD diss. avtoreferati. – Toshkent, 2025.
17. Usmanova A.A. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda fiskal instrumentlardan foydalanish istiqbollari: PhD diss. avtoreferati. – Toshkent, 2024.

18. Mirzamaxmudova M.O. Aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini aniqlashning nazariy asoslarini takomillashtirish: PhD diss. avtoreferati. – Toshkent, 2022.
19. International Labour Organization. World Social Protection Report 2024-26. – Geneva: ILO, 2024.
20. World Bank. State of Social Protection Report 2025: The 2-Billion-Person Challenge. – Washington, DC: World Bank, 2025.
21. Khamdamov Sh.K. Social protection and poverty alleviation: financing strategies and comparative practices in developed and developing countries. (2024). Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(04), 264-270.
22. <https://stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti.
23. <https://openbudget.uz> - O'zbekiston Respublikasi ochiq budjet axborot portal.